



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI HAY'AT QARORI

2025-yil 17 yanvar

№ 2 / 1

Toshkent sh.

Vazirlik tasarrufidagi nasos stansiyalari, sug'orish tarmoqlari, shu jumladan, viloyatlararo va magistral kanallar, irrigatsiya tizimlari, ichki xo'jalik sug'orish tarmoqlarini, sug'orish va meliorativ quduqlarni 2025-yil vegetatsiya mavsumiga tayyorlash, kanallarni betonlashtirish, suv omborlarida suv zaxirasini to'plash hamda qishki novegetatsiya mavsumida suv resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va navbatdagi vazifalar to'g'risida

Vazirlik hay'ati ta'kidlaydiki, Vazirlikning 2024-yil 4-sentyabrdagi "2024-2025-yillarning kuz-qish davri uchun suv olish limitlarini tasdiqlash hamda mavsum davomida irrigatsiya-melioratsiya obyektlarida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar to'g'risida"gi 170-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash, Vazirlik tasarrufidagi nasos stansiyalari, sug'orish tarmoqlari, shu jumladan, viloyatlararo va magistral kanallar, irrigatsiya tizimlari, ichki xo'jalik sug'orish tarmoqlarini, sug'orish va meliorativ quduqlarni 2025-yil vegetatsiya mavsumiga tayyorlash, kanallarni betonlashtirish, suv omborlarida suv zaxirasini to'plash hamda qishki novegetatsiya mavsumida suv resurslaridan oqilona foydalanish borasida muayyan ishlar amalga oshirilgan.

2024–2025-yillarning kuz-qish davrida 879 ta davlat tasarrufidagi nasos agregatlari, 523 ta sug'orish quduqlari, 498 ta ichki xo'jalik hisobidagi nasos agregatlari ta'mirlangan, tizim tashkilotlarining ma'muriy binolariga 1 200 kVt quvvatdagi quyosh panellari va 20 000 litr hajmdagi geokollektorlar o'rnatish rejalashtirilgan bo'lib, haqiqatda 1 209,6 kVt quvvatdagi quyosh panellari va 20 100 litr hajmdagi geokollektorlar o'rnatilgan;

3 572 km xo'jaliklararo sug'orish tarmoqlari tozalangan, 4 332 dona gidrotexnika inshootlari va 4 639 dona gidropostlar ta'mirlangan, "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasalari hisobiga o'tkazilgan 8 650 km ichki sug'orish tarmoqlaridan 6 595 km qismi mexanizm yordamida, 57 489 km uzunlikdagi ariq va lotoklarning 34 963 km qismi tozalanib, 8 032 dona gidrotexnika inshootlaridan 6 951 dona 8 485 dona gidropostlardan 7 112 donasi ta'mirlangan;

2024–2025-yillarning kuz-qish davridagi tadbirlar doirasida 9 704 dona xo'jalik ichki sug'orish tarmoqlaridagi fermerlarning 8 222 dona suv olish quloqlari jihozlangan, 6 766 km uzunlikdagi melioratsiya tarmoqlari tozalangan;

2025-yilda yangidan boshlanuvchi 136 ta obyektдан barchasining loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilib, 116 tasiga "Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish respublika markazi" davlat muassasasining, qurilish qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 6 ming baravari miqdoridan oshgan 78 ta obyektдан 64 tasiga "Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi" davlat unitar korxonasining ekspertiza xulosalari olingan;

Kanallarni va sug'orish tarmoqlarini betonlashtirish hamda rekonstruksiya qilish bo'yicha yangidan boshlanuvchi 64 ta obyektning loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilib, 62 tasiga "Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish respublika markazi" davlat

muassasasining, qurilish qiymati bazaviy hisoblash miqdorining 6 ming baravari miqdoridan oshgan 59 ta obyektidan 54 tasiga “Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi” davlat unitar korxonasining ekspertiza xulosalari olingan;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari tashabbuskorligida fermer va klasterlar tomonidan bugungi kunga qadar 2,7 ming km ichki sug‘orish tarmoqlari betonlashtirilgan;

Respublikada 2024-yil 1-oktyabrdan – 2025-yil 10-yanvargacha sug‘orish ishlari uchun 4 mlrd 548 mln kub metr suv yetkazib berilib, ushbu olingan suv bilan mavsum boshidan 2 mln 274 ming gektar maydonda sug‘orish ishlari amalga oshirilgan hamda 276 ming gektar maydonda sho‘r yuvish ishlari tashkil etilgan.

Lekin, hisobot davrida bir qator xato va kamchiliklarga, qoloqliklarga ham yo‘l qo‘yilgan bo‘lib, erishilmagan natijalar bilan birgalikda o‘z yechimini kutayotgan masalalar mavjud. Jumladan:

Norin-Qoradaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi tomonidan vegetatsiya mavsumiga qadar 100 dona nasos agregatlarini ta‘mirlash rejalashtirilgan bo‘lib, haqiqatda bor-yo‘g‘i 23 dona (**rejaga nisbatan 23,0 foiz**), 7 dona davlat sug‘orish quduqlarini ta‘mirlash rejalashtirilgan bo‘lib, haqiqatda 4 dona (**rejaga nisbatan 57,0 foiz**) ta‘mirlangan;

Sirdaryo-Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi tomonidan vegetatsiya mavsumiga qadar 15 dona nasos agregatlarini ta‘mirlash rejalashtirilgan bo‘lib, haqiqatda bor-yo‘g‘i 4 dona (**rejaga nisbatan 26,6 foiz**), 10 dona davlat sug‘orish quduqlarini ta‘mirlash rejalashtirilgan bo‘lib, haqiqatda 4 dona (**rejaga nisbatan 40,0 foiz**) ta‘mirlangan;

Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi hamda Quyi-Sirdaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi Nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston–2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PQ–300-son qarorining 3-a ilova 7.2 va 8.2-bandlari ijrosi yuzasidan **hisobotlarda qo‘shib yozilgan va yolg‘on ma‘lumotlar taqdim qilingan**;

2024–2025-yillarning kuzgi-qishki tadbirlari boshlanganiga qariyb 5 oy bo‘lganiga qaramasdan irrigatsiya tarmoqlarini sug‘orish mavsumiga tayyorlash topshiriqlari Qoraqalpog‘iston Respublikasida **67,0 foiz**, Qashqadaryo viloyatida **56,0 foiz**, Navoiy viloyatida **69,0 foiz** hamda Toshkent viloyati **61,0 foizga** bajarilgan;

Gidrotexnika inshootlarini ta‘mirlash ishlari Toshkent viloyati reja ko‘rsatkichlariga muvofiq **67,0 foizga**, Parkent-Qorasuv irrigatsiya tizimi boshqarmasida **63,0**, Toshkent magistral kanali boshqarmasida **61,0 foiz**, Qonliko‘lda **56,0 foiz**, Nukusda **40,0 foiz**, Qo‘ng‘irotda **25,0 foizga** bajarilgan bo‘lsa, **Mo‘ynoq tumanida ishlar hanuzgacha boshlanmagan**;

Gidropostlarni ta‘mirlash ishlari Toshkent viloyatida **65,0 foizga**, Bo‘zsuv irrigatsiya tizimi boshqarmasida va Bo‘ka tumanida **65,0 foiz**, Bo‘kada **64,0 foiz**, “Parkent-Qorasuv” irrigatsiya tizimi boshqarmasida, Bekobod va Kegeyli tumanlarida **60,0 foiz**, Toshkent magistral kanali boshqarmasida **57,0 foiz**, Xo‘jayli, Taxiatoch, Qonliko‘l va Qo‘ng‘irot tumanlarida **50,0 foiz**, Ohangaron-Dalvarzin irrigatsiya tizimi boshqarmasida va Kitob tumanida **31,0 foiz**, Muborakda **29,0 foiz**, Qarshida **24,0 foiz**, Parkent-Qorasuv irrigatsiya tizimi boshqarmasida **26,0 foiz**, Qo‘shrabotda **25,0 foiz**, Bo‘kada **23,0 foiz** va Bekobodda **17,0 foizga** bajarilgan.

2025-yilgi qurilish ishlari manzilli ro‘yxatiga kiritilishi belgilangan 20 ta shundan, 14 ta irrigatsiya va 6 ta melioratsiya (Qoraqalpog‘iston Respublikasida 6 ta, Farg‘ona viloyatida 7 ta, Samarqand viloyatida 5 ta, Jizzax va Xorazm viloyatlarida 1 tadan)

obyektlarining loyiha-smeta hujjatlariga “Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish respublika markazi” davlat muassasasining **ekspertiza xulosalari olinmagan**.

Bundan tashqari, 7 ta shundan, 6 ta irrigatsiya va 1 ta melioratsiya (Jizzax viloyatida 3 ta, Samarqand va Farg‘ona viloyatlarida 2 tadan) obyektlarining loyiha-smeta hujjatlariga “Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi” davlat unitar korxonasining **ekspertiza xulosalari olinmagan**.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, qayd etilgan xato-kamchiliklar va qoloqliklarni zudlik bilan bartaraf etish, o‘z yechimini kutayotgan mavjud muammolarni hal qilish, nasos stansiyalari, sug‘orish tarmoqlari, shu jumladan, viloyatlararo va magistral kanallar, irrigatsiya tizimlari, ichki xo‘jalik sug‘orish tarmoqlarini, sug‘orish va meliorativ quduqlarni 2025-yil vegetatsiya mavsumiga tayyorlash, kanallarni betonlashtirish, suv omborlarida suv zaxirasini to‘plash hamda qishki novegetatsiya mavsumida suv resurslaridan oqilona foydalanish bo‘yicha boshqaruvning barcha darajadagi rahbar va mutaxassislarning shaxsiy mas‘uliyati va javobgarligini kuchaytirish maqsadida hay‘at yig‘ilishi

Qaror qiladi:

1. Vazir o‘rinbosarlari, Vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo‘lim boshliqlari, Vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi, viloyatlar irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, “Suvqurilishinvest” davlat muassasalari, Nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari, Meliorativ ekspeditsiyalar, Yirik gidrotexnik inshootlar va suv omborlari, irrigatsiya tizim boshqarmalari hamda tumanlar “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari rahbarlari tomonidan nasos stansiyalari, sug‘orish tarmoqlari, shu jumladan, viloyatlararo va magistral kanallar, irrigatsiya tizimlari, ichki xo‘jalik sug‘orish tarmoqlarini, sug‘orish va meliorativ quduqlarni 2025-yil vegetatsiya mavsumiga tayyorlash, kanallarni betonlashtirish, suv omborlarida suv zaxirasini to‘plash hamda qishki novegetatsiya mavsumida suv resurslaridan oqilona foydalanish borasida amalga oshirilgan ishlar **talab darajasida emas deb topilsin**.

2. Vazirlikning 2024-yil 4-sentyabrdagi “2024–2025-yillarning kuz-qish davri uchun suv olish limitlarini tasdiqlash hamda mavsum davomida irrigatsiya-melioratsiya obyektlarida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 170-sonli buyrug‘i ijrosini ta‘minlashga mas‘uliyatsizlik bilan yondoshganligi hamda nasos stansiyalari, sug‘orish va meliorativ quduqlarni 2025-yil vegetatsiya mavsumiga tayyorlashda qoloqlikka yo‘l qo‘yganligi uchun Amu-Surxon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi Nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi boshlig‘i A.Abduraimovning **egallab turgan lavozimidan ozod qilinganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin**.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PQ–300-sonli qarorining 3-a ilova 7.2 va 8.2-bandlari ijrosi yuzasidan hisobotlarda qo‘shib yozganligi va yolg‘on ma‘lumotlar taqdim qilganligi uchun Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi Nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi boshlig‘i I.Ismailov hamda Quyi-Sirdaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi Nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi boshlig‘i D.Abdullayevga O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasining birinchi qismi 1-bandiga asosan **hayfsan e‘lon qilinsin**.

4. 2024–2025-yillar kuzgi-qishki tadbirlar rejasiga muvofiq irrigatsiya tarmoqlarini ta‘mirlash-tiklashda sustkashlikka yo‘l qo‘yganliklari uchun Toshkent magistral kanali boshqarmasi boshlig‘i N.To‘laganov, “Karmana-Konimex” irrigatsiya tizimlari boshqarmasi boshlig‘i A.A‘zamov, “Paxtaarna-Nayman” irrigatsiya tizimlari boshqarmasi boshlig‘i Yu.Kumekov, “Parkent-Qorasuv” irrigatsiya tizimlari boshqarmasi boshlig‘i A.Ismatov, Beruniy tumani “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi boshlig‘i J.Yeshchanov hamda Mo‘ynoq tumani “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi boshlig‘i

N.Babanazarovlarga O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasining birinchi qismi 1-bandiga asosan **hayfsan e'lon qilinsin**.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrda PQ-404-sonli qarori ijrosini to'liq darajada ta'minlamaganligi, 2024-yilda ajratilgan mablag'larni o'zlashtirish, obyektlarni foydalanishga topshirish hamda 2025-yilda amalga oshiriladigan obyektlarining loyiha-smeta hujjatlarini ekspertizadan o'tkazmaganligi uchun Samarqandsuvqurilishinvest" davlat muassasasi direktori V.Raximov, "Qoraqalpog'istonsuvqurilishinvest" davlat muassasasi direktori v.v.b. N.Kaipov, "Qashqadaryosuvqurilishinvest" davlat muassasasi direktori B.Bo'riyev, "Farg'onasuvqurilishinvest" davlat muassasasi direktori O.Abdullayev, "Pitnaksuvqurilishinvest" davlat muassasasi direktori S.Yuldashevlarlarga;

"Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida ekilgan ko'chatlarni "Yashil makon eko" platformasiga kiritishga mas'uliyatsizlik bilan yondoshganligi uchun Quyi-Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig'i O.Sadinov, Amu-Surxon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig'i B.Alimov, Sirdaryo-So'x irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig'i F.Tursunov, Termiz tumani Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasasi boshlig'i D.Yormatov hamda Ishtixon tumani "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasasi boshlig'i M.Shodiyevlarga **so'nggi marotaba ogohlantirish e'lon qilinsin**.

Belgilab qo'yilsinki, kelgusida shu kabi kamchiliklarga yo'l qo'yilgan hamda berilgan topshiriqlar ijrosi o'z muddatida sifatli qilib bajarilmagan taqdirda, ularga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasiga muvofiq **mehnat shartnomasini bekor qilishgacha bo'lgan intizomiy jazo choralari qo'llaniladi**.

6. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish boshqarmasi boshlig'i X.Lapasov, Yuridik bo'lim boshlig'i R.Sharopovlar vazir o'rinbosari R.Qarshiyev bilan kelishilgan holda mazkur hay'at yig'ilishi qarori bilan intizomiy javobgarlikka tortilgan rahbarlarga nisbatan qo'llanilgan jazoni rasmiylashtirish bo'yicha **2 kun muddat ichida "Intizomiy jazo choralari qo'llash haqida"**gi buyruq loyihasini kiritсин.

7. Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vaziri, viloyatlar irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, Vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari, "Suvqurilishinvest" davlat muassasalari, Nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari, Meliorativ ekspeditsiyalar, magistral kanallar, suv omborlari va sel-suv omborlari hamda xavf darajasi yuqori bo'lgan boshqa suv xo'jaligi obyektlari, irrigatsiya tizim boshqarmalari hamda tumanlar "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasalari rahbarlariga:

2 kun muddatda joylarda hisobot davrida amalga oshirilgan ishlar, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar, erishilmagan natijalar hamda hozirgi kunda o'z yechimini kutayotgan masalalarni tanqidiy ruhda muhokama qilib, ularni zudlik bilan bartaraf etish va o'z yechimini kutayotgan mavjud muammolarni hal qilish yuzasidan viloyat, tuman va har bir suv xo'jaligi obyekti kesimida chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish, tasdiqlash, Vazirlikka taqdim qilish hamda uning ijrosi haqida har oy yakuni bilan Vazirlikka yozma ravishda axborot taqdim qilib borish;

2 kun muddatda yildan yilga o'tuvchi 30 ta irrigatsiya va melioratsiya obyektlariga moliyalashtirish hajmlarini qurilish-montaj ishlarining kalendar jadvallari bilan uzviy bog'liq holda 2025-yil uchun yildan yilga o'tuvchi qurilish obyektlarining manzilli ro'yxatini belgilangan tartibda tasdiqlash;

bir hafta muddatda 2025-yilgi qurilish ishlari manzilli ro'yxatiga kiritilishi belgilangan 20 ta obyektning loyiha-smeta hujjatlariga "Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish respublika markazi" davlat muassasasi hamda 7 ta obyektning loyiha-smeta hujjatlariga "Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi" davlat unitar korxonasining ekspertiza xulosalarini olish;

bir hafta muddatda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida 2024-yil kuz-qish mavsumida ekilgan ko‘chatlarni “Yashil makon eko” platformasiga kiritish ishlarini yakuniga yetkazish;

bir oy muddatda 2025-yilda yangidan boshlanadigan obyektlar bo‘yicha tasdiqlangan loyiha hujjatlari asosida belgilangan tartibda xarid qilish tartib-taomillarini yakunlash va tanlov (tender) g‘oliblari bilan pudrat shartnomalarini tuzish;

kuzgi-qishki mavsumga belgilangan tadbirlarga jalb etilgan ekskavator va mexanizmlarni uzluksiz ishlashini ta‘minlash, ular uchun kerakli va yetarli ehtiyot qismlar, yoqilg‘i-moylash materiallari zaxirasini yaratish;

kuzgi-qishki davrda qatnashayotgan ekskavator, buldozer va boshqa mexanizmlarning mashinist hamda mexanizatorlariga yetarli sharoit yaratib, issiq ovqat va maoshlarini o‘z vaqtida berib borish;

2025-yil bahor mavsumi uchun belgilangan rejaga muvofiq ko‘chat ekish parametrlarining reja-jadval asosida belgilangan muddatlarda bajarilishi hamda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan kunlik ma‘lumotlarni Respublika ishchi guruhiga taqdim etib borish;

har haftada O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vaziri tomonidan tasdiqlangan har haftalik Reja-grafik asosida hududlarda o‘quv-seminarlarni o‘tkazilishini tizimli ravishda davom ettirish, hududlarda tashkil etilayotgan o‘quv-seminarlarda aniqlangan xato-kamchiliklar va qoloqliklarni zudlik bilan bartaraf etish, o‘z yechimini kutayotgan mavjud muammolarni hal qilish bilan bog‘liq chora-tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshirish va natijasi haqida har hafta yakuni bilan Vazirlikka yozma ravishda axborot taqdim etish;

har oy yakuni bilan keyingi oyning 3 sanasiga qadar iqtisod qilingan elektr energiyasi miqdorlari bo‘yicha Vazirlikka tegishli hisob-kitoblar bilan asoslangan hisobotlarni taqdim qilish;

har oyda elektr energiyasi uchun haqiqatda ajratilgan mablag‘lar bo‘yicha nasos stansiyalarni ishlatish yuzasidan tegishli grafiklarni ishlab chiqib, viloyat hokimining qishloq xo‘jaligi bo‘yicha o‘rinbosarlari tomonidan tasdiqlatish va shu asosida nasos stansiyalarni ishlatilishini so‘zsiz ta‘minlash;

nasos stansiyalarga o‘rnatilishi rejalashtirilgan elektrodvigatel, quyosh elektr panellari, quyosh suv isitish qurilmalari, kondensator qurilmalarini hamda chastota o‘zgartiruvchi qurilmalarni sotib olinishini va o‘rnatilishini to‘liq ta‘minlash;

doimiy ravishda ishlayotgan quduqlarni nazorat qilib, unga bog‘langan maydonlarga suv tejovchi sug‘orish texnologiyalari joriy qilmagan bo‘lsa ularni darhol o‘chirish choralari ko‘rish;

suv xo‘jaligi sohasida olib borilayotgan islohotlar, bunyodkorlik ishlarini, qabul qilinayotgan O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hujjatlari va ularning mazmun mohiyatini sohada mehnat qilayotgan barcha darajadagi rahbar va xodimlarga yetkazish maqsadida gazeta va jurnallarga obunani tashkil etish va ularni muntazam ravishda o‘qib borilishini ta‘minlash, ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni kuchaytirish;

2025-yil uchun xarajatlar smetasi doirasida ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish va sarflanishini tashkil etish, sanoat va energetika korxonalariga yetkazib berilayotgan har oylik texnik suvning hisob-kitobiga aniqlik kiritish, o‘z vaqtida to‘lovlarini amalga oshirmagan iste‘molchilarga nisbatan mablag‘larni undirish bo‘yicha iqtisodiy sudlarga tegishli da‘vo arizalarini kiritish;

Vazirlikning 2022-yil 23-noyabrdagi 214-sonli buyrug‘iga asosan tashkilotlarning rivojlantirish jamg‘armasiga mashina-mexanizmlar yordamida pudrat shartnoma tuzish orqali, vaqtincha bo‘sh turgan bino-inshootlar hamda muhofaza zonalarini ijaraga berish,

metallom topshirishdan, yordamchi xo'jalik va boshqa manbalar hisobidan mablag'lar tushirish choralarini ko'rish;

ijro intizomini mustahkamlash, hujjatlar, shu jumladan, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, ijro monitoringini yuritish va ijro intizomiga qat'iy rioya etilishini ta'minlash borasida olib borilayotgan ishlarni **har hafta yakuni bilan** apparat yig'ilishlarida va **har chorak yakuni bilan** umumiy yig'ilishlarda tanqidiy-tahliliy ruhda muhokama qilish orqali O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari va topshiriqlari ijrosini belgilangan muddatlarda, to'laqonli va sifatli ta'minlash bo'yicha barcha darajadagi rahbar-xodimlarning shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish;

Vazirlikning rasmiy veb-sayti, matbuot kotibining Telegram ijtimoiy tarmog'idagi kanali, Facebook ijtimoiy tarmog'ini suv xo'jaligi sohasida faoliyat yuritayotgan barcha darajadagi rahbar-xodim va ishchilar tomonidan har kuni ko'rib chiqilishini va o'qib borilishini tashkil etish hamda Vazirlik faoliyatiga oid muhim voqealar va tadbirlarni mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarida, Vazirlikning rasmiy veb-sayti, matbuot kotibining Telegram ijtimoiy tarmog'idagi kanali, Facebook ijtimoiy tarmog'idagi sahifasida izchil yoritib borilishini ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

8. Suv xo'jaligi obyektlari xavfsizligini va suvdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi boshlig'i R.Raximovga:

suv resurslaridan tejamli va oqilona foydalanish uchun suvdan foydalanuvchilar hamda suv iste'molchilarini suvdan foydalanish madaniyati darajasini oshirish yuzasidan zarur choralar ko'rish;

suvdan foydalanish va suv iste'moli qoidalari (tartibi)ga rioya etilishi ustidan tizimli nazorat o'rnatish;

kanallar, sug'orish tarmoqlari, suv omborlari, nasos stansiyalari hamda boshqa suv xo'jaligi obyektlarida suv resurslarining samarali boshqarilishi bo'yicha qat'iy nazorat o'rnatish;

suvdan foydalanish va suv iste'molida suv resurslarining hisobi va hisobotini yuritish yuzasidan tizimli monitoring va nazorat ishlarini amalga oshirib, aniqlangan qonunchilik hujjatlari buzilishi holatlari bo'yicha o'rnatilgan tartibda keskin choralar ko'rib borish hamda amalga oshirilgan ishlar to'g'risida har oy yakuni bilan Vazirlikka axborot kiritib borish vazifalari yuklatilsin.

9. Ushbu hay'at yig'ilishi qarorining ijrosini tashkil qilish Vazir o'rinbosarlari R.Qarshiyev, X.Quvondiqov, D.Xodjiaxmedovlarga hamda uni nazorat qilish Vazirning birinchi o'rinbosari T.Butunbayev zimmasiga yuklatilsin.

Hay'at raisi



Sh. Xamrayev